

RADIATION, KIMYOVIY, BIOLOGIK MUHOFAZANI TAKTIK HAVO DESANTI HARAKATLARIDA TASHKILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOSLIGI

Hafizov Turg'un Baxriddinovich

*podpolkovnik, O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa
universiteti QK BShF Jangovar ta'minot kafedrası RKBM sikli boshlig'i*

Qobilov Javlon Sultanovich

*podpolkovnik, O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa
universiteti QK BShF Jangovar ta'minot kafedrası katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada taktik havo desanti bajaradigan jangovar vazifalarning o'ziga hosligidan kelib chiqib uning radiatsion, kimyoviy, biologik muhofazasining maqsadi vazifalari, zamonaviy jangovar harakatlarda taktik havo desanti bo'linmalarining radiatsion, kimyoviy, biologik muhofaza vazifalarini bajarish vaqtida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: taktik havo desanti, radiatsion, kimyoviy, biologik muhofaza, desant tushirish, ko'rinuvchanligini kamaytirish, portativ dozimetrlar va gazoanalizatorlar.

Hozirgi zamonaviy qurolli qarama-qarshilikning o'zgaruvchan sharoitlarida dunyoda sodir bo'lgan turli xil ko'rinish va ko'lamdagi qurolli mojarolar tahlili shuni ko'rsatadiki, qurolli to'qnashuvlarda jang olib borayotgan tomonlar jangovar harakatlarning an'anaviy, hamda noan'anaviy usul va shakllarini qo'llagan holda jang olib borish davomida, shuningdek jang yakunida muvaffaqiyatga erishishga intilishadi. Jangni olib borish davomida tomonlar mudofaa taktik harakatlarini olib borishda hujum, hujum taktik harakatlarini olib borishda esa mudofaa tavsifiga ega bo'lgan taktik harakatlarni qo'llashni rejalashtirishadilar.

Shuni inobatga olish kerakki aksariyat holatlarda jangning yakuniy bosqichi hujum tasnifiga ega bo'lgan jangovar harakatlarni amalga oshirish bilan yakunlanadi. Hujum tasnifiga ega bo'lgan jangovar harakatlarning samarali yakun topishi qator omillarga bog'liqdir. Ushbu omillardan biri taktik havo desantini qo'llashdir.

Taktik havo desanti (TakHD) bu – frontdan harakatlanayotgan qo'shinlar (bo'linmalar) bilan hamkorlikni ta'minlagan holda jangovar vazifani bajarish uchun dushman front ortiga tushiriladigan qo'shin turlari va maxsus qo'shinlar bilan kuchaytirilgan umumqo'shin bo'linmasi hisoblanadi [1, 40-42 b].

Taktik havo desantining asosiy vazifalaridan biri bu – dushmanning mavjud bo'lgan yadroviy, kimyoviy va biologik qurollarini va ularni qo'llash vositalarini yo'q qilish va ishdan chiqarish hisoblanadi. Bu esa TakHD jangovar vazifalarni bajarish mobaynida radiatsion, kimyoviy, biologik zararlanish vaziyatlari sodir bo'lishining ehtimolini oshiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib TakHD jangovar harakatlarni olib borish vaqtida radiatsion, kimyoviy, biologik (RKB) muhofazaning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

desantlashtirish uchun mo'ljallangan dastlabki rayonlarda, vertolyot bo'linmalarining uchish polosalari va unga ta'luqli xududlarda, desant tushirish va jangovar harakatlar rayonlarida radiatsion, kimyoviy va biologik vaziyatni aniqlash;

janga tayyorgarlik ko‘rish va jang olib borish vaqtida radiatsion, kimyoviy, biologik xavfli obyektlarda avariylar sodir bo‘lganda, ommaviy qirg‘in qurollari qo‘llanilganda ularning shikastlovchi omillaridan desantlashtiriladigan bo‘linma va vertolyot bo‘linmalarining shaxsiy tarkibini muhofaza qilish;

desantlashtirishga tayyorgarlik ko‘rish vaqtida uchish polosalarida, desantlarni tushirish va jangovar vazifalarni bajarish rayonlarida qo‘shin va obyektlarning ko‘rinuvchanligini kamaytirish;

desantlashtirishga tayyorgarlik ko‘rish vaqtida, desantlarni tushirish va jangovar vazifalarni bajarish vaqtida shaxsiy tarkibning radiatsion xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan chora va tadbirlarni amalga oshirish (1 -rasm);

TakHD jangovar vazifalarni bajarish vaqtida olov otuvchi va yondiruvchi qurollar bilan dushmanning yengil zirhlangan harbiy texnikalari, jonli kuchini, uzoq muddatga mo‘ljallangan o‘q otish inshootlarini yo‘q qilish va dushman fronti ortidagi xududlarda yong‘in o‘choqlarini keltirib chiqarish [2, 97-108 b].



1-rasm. Desantlashtirishga tayyorgarlik ko‘rish va desantlarni tushirish

TakHD jangovar vazifani bajarishga tayyorgarlik ko‘rish va bajarish davrida radiatsion, kimyoviy, biologik muhofazaning vazifalarini bajarish taktik havo desanti kuch va vositalari bilan amalga oshiriladi. RKB muhofazaning murakkab vazifalarini bajarish uchun qo‘shilmaning RKB muhofaza bo‘linmalari jalb qilinadi. Havo desant RKB muhofaza bo‘linmalari qo‘shimcha RKB razvedka va ognemyot bo‘linmalari bilan kuchaytirilishi maqsadga muvofiqdir.

TakHDning RKB muhofazasi, uning quyidagi taktik vazifalarni bajarish ketma-ketligiga uyg‘un ravishda tashkillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- desantlashtirish uchun desantlarning dastlabki rayonda jamlanish vaqtida;
- desantlarni vertolyotga chiqarish va tushirish (qo‘nish) vaqtida;
- qo‘nish polosalarida dushmanga olovli talofat yetkazish, desantlashtirish rayonlarida dushmanning havo xujumidan mudofaa vositalarini bostirish vaqtida;
- desantlashtirish vaqtida;
- desantlar tomonidan jangovar vazifalarni bajarish vaqtida.

TakHDning RKB muhofazasi vazifalari:

desantlashtirish uchun mo‘ljallangan dastlabki rayonga harakatlanish va shu rayonda joylashganda (jangovar vazifani bajarishga tayyorgarlik davri) – qo‘shilmaning RKB muhofaza kuch va vositalari bilan;

uchish polosasi va desantlashtirish rayonida (jangovar vazifani bajarishga tayyorgarlik davri) – aviatsiya kuch va vositalari bilan;

jangovar vazifalarni bajarish rayonlarida (jangovar vazifani bajarish davri) – TakHDning o'z kuch va vositalari bilan amalga oshiriladi.

Demak TakHDni qo'llashda RKB vazifalarini ikki davr oralig'ida amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

birinchisi, jangovar vazifalarni bajarishga tayyorgarlik davrida havo desant bo'linmalarining jamlanish rayoniga, avaatsiya bo'linmalari esa desantlashtirish uchun mo'ljallangan dastlabki rayonga yetib kelguniga qadar ushbu rayonlarda RKB vaziyatni olidindan aniqlash qo'shilmaning RKB muhofaza vzvodi RKB razvedka bo'linmalari kuch va vositalari bilan amalga oshiriladi. Bunda RKB razvedka bo'linmalari dastlabki va jamlanish rayonlarini va bo'linmalar harakatlanadigan marshrutlarni RKB razvedka qilishni RKB razvedka bo'linmalarida mavjud bo'lgan radiatsion, kimyoviy va maxsus bo'lmagan biologik razvedka mashinasida amalga oshiradi. Bundan tashqari rayondagi mashina harakatlanish imkoniyati bo'lmagan yoki radiafaol va kimyoviy moddalar bilan zararlanish ehtimoli mavjud bo'lgan xududlar piyoda RKB razvedka dozorlari bilan amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Piyoda RKB razvedka dozorlarining RKB razvedka olib borishini vaqt jihatidan tezkorligini va sifat jihatidan aniqligini ta'minlash maqsadida zamonaviy MKS-RM1401K-3M radiatsion, AP4C kimyoviy, DGK-RM2012M radiatsion va kimyoviy razvedka asboblardan foydalanish samarali hisoblanadi;

ikkinchisi, jangovar vazifani bajarish davrida TakHD jangovar vazifalarni bajarish rayonida RKB razvedka taktik havo desanti bo'linmalariga qo'shib berilgan RKB razvedka bo'linmalari va shtatdan tashqari RKB razvedka olib borish uchun maxsus tayyorlangan hisoblar kuch va vositalari bilan uzluksiz olib boriladi. TakHD bo'linmalari dushmanning obyektlarini egallash vaqtida hujum yo'nalishlarida radiatsion, kimyoviy, biologik razvedka bevosita jangovar vazifani bajarayotgan bo'linmaning kuch va vositalari bilan amalga oshiriladi. Bunda asosiy e'tibor dushmanning yadroviy, kimyoviy qurollari (obyektlari) va biologik vositalarini aniqlash va ularni yo'q qilish vaqtida RKB zararlanishni oldini olishga qaratiladi. TakHD bo'linmalari jangovar vazifalarni bajarish vaqtida ularni tutun (aerozol) bilan niqoblanishni to'g'ri va o'z vaqtida amalga oshirishga e'tibor qaratish zarur bo'ladi. Bunda shaxsiy tarkibga berilgan qo'l tutun granatalaridan (QTG), shamol yo'nalishini hisobga olgan holda foydalanish lozim (2-rasm). Boshqa turdagi qurollar bilan talofat yetkazish imkoni bo'lmaganda yoki samarali hisoblanmaganda binolarda, yerto'lalarda, g'orlarda joylashgan dushmanning jonli kuchlarini, muhim ahamiyatga ega bo'lgan obyektlarini, yengil zirhlangan texnikalarini olov otuvchi va yondiruvchi qurollar bilan yakson qilish TakHD tarkibiga qo'shib beriladigan ognemyot guruhi kuch va vositalari bilan amalga oshiriladi.



2-rasm. Tutun (aerozol) bilan niqoblash

Uchish polosasida havoda radiatsion razvedka yuqori qo‘mondonlikning aviatsiya kuch va vositalari bilan amalga oshiriladi.

Rossiya va Ukrainada bo‘lib o‘tayotgan urushlarni radiatsion, kimyoviy, biologik muhofaza nuqtai nazaridan qilingan qisqacha tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, tomonlar kimyoviy xavfli obyektlarga, biologik laboratoriyalarga, hamda, atom elektr stansiyalariga uchuvchisiz uchish apparatlari va boshqa qurollar bilan zarbalarni amalga oshirib kelmoqda. Bu esa dushman fronti ortida jangovar vazifalarni bajaradigan TakHD bo‘linmalarining RKB muhofazasini ta‘minlashning yana bir o‘ziga hos jihatlaridan biri ekanligini ko‘rsatadi [3, 32-34 b].

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz kerakki, barcha jangovar harakatlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish jangni ta‘minot turlarining qanchalik darajada sifatli va o‘z vaqtida tashkillashtirilishi, hamda amalga oshirilishiga bevosita bog‘liqdir. Hozirda davom etayotgan Rossiya va Ukrainada urushlaridagi TakHD bo‘linmalarining harakatlari tahlilidan xulosa qilishimiz mumkinki jangovar ta‘minotning tarkibiy qismi hisoblangan RKB muhofaza vazifalarini bajarish uchun shaxsiy tarkibni har tomonlama qulay bo‘lgan filtrlovchi terini himoyalovchi vositalar, tashqi o‘lchamlari jihatidan kichik portativ dozimetrlar va gazoanalizatorlar bilan ta‘minlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘R QK Akademiyasi tinglovchilari va kursantlari uchun ilmiy maqolalar to‘plami: 10-son to‘plam – T.. O‘R QK Akademiyasi, 2021. -181 b.
2. Qo‘shinlarning jangda radiatsiya, kimyoviy, biologik muhofazasi. Qo‘llanma – T.. 2019. -164 b.
3. А.В. Дынник. Применение ТакВД в современных военных конфликтах: проблемы и пути их решения. Журнал “Военная мысль” № 5, 2023. -86 с.
4. Куланов, Б. Я., & Саодуллаев, А. С. (2021). Развитие альтернативных источников энергетики Узбекистана. In НАУКА, ОБРАЗОВАНИЕ, ИННОВАЦИИ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ И СОВРЕМЕННЫЕ АСПЕКТЫ (pp.29-32).
5. Арзикулов, Ф. Ф., & Мустафакулов, А. А. (2020). Возможности использования возобновляемых источников энергии в узбекистане. НИЦ Вестник науки.
6. Мусаев, Ш., Арзикулов, Ф. Ф., Олимов, О. Н., Норматова, Д. А., & Сатторова, М. А. (2021). Свойства кристаллов кварца. Science and Education, 2(10), 201-215.

7. Мустафакулов, А. А., Джуманов, А. Н., & Арзикулов, Ф. (2021). Альтернативные источники энергии. *Academic research in educational sciences*, 2(5), 1227-1232.
8. Отажонов, И. О. (2021). Сурункали буйрак касаллиги бўлган беморлар ҳаёт сифати кўрсаткичлари.
9. Отажонов, И. О. (2020). Кам оксилли парҳез самарадорлигини баҳолаш.
10. Otajonov, I. O., & Urinov, A. M. (2024). Assessment of Quality of Life Indicators of Patients with Cirrhosis of the Liver.
11. Otajonov, I. O. (2023). ANALYSIS OF MICRONUTRIENTS IN BABY FOOD RATION IN THE PRESENCE OF COMPLICATIONS AFTER RICKETS. *Conferencea*, 144-146.
12. Базарбаев, М. И., Эрметов, Э. Я., & Сайфуллаева, Д. И. (2018). Таълимда ахборот технологиялари. *Дарслик*, Тошкент.
13. Базарбаев, М. И., Эрметов, Э. Я., Сайфуллаева, Д. И., & Яхшибоева, Д. Э. (2023). Использование медиатехнологии в образовании. *Журнал гуманитарных и естественных наук*, (6), 94-99.
14. Базарбаев, М. И., & Сайфуллаева, Д. И. (2022). Раҳиғ мов Б Т., Ж, раева З Р. Роль информационных техғ нологий в медицине и биомедицинской инженерии в подготовке будущих специалистов в пеғ риод цифровой трансформации в образовании. *ТТА Ахборотномаси*, 10(10), 8ғ13.
15. Марасулов, А. Ф., Базарбаев, М. И., Сайфуллаева, Д. И., & Сафаров, У. К. (2018). Подход к обучению математике, информатике, Информационным технологиям и их интеграции в медицинских вузах. *Вестник ташкентской медицинской академии*, (2), 42.
16. Базарбаев, М. И., Сайфуллаева, Д. И., & Рахимов, Б. Т. ЗР Жураева Роль информационных технологий в медицине и биомедицинской инженерии в подготовке будущих специалистов в период цифровой трансформации в образовании. 10.10. 2022. *ТТА. Ахборотномаси*, 8-13.
17. Базарбаев, М. И., Эрметов, Э. Я., & Сайфуллаева, Д. И. Информационно-коммуникационная технология в медицинских вузах. Реформы в медицинском образовании, проблемы и их решения. In *Сборник материалов XII научно методической конференции*. Ташкент-2018.
18. Марасулов, А. Ф., Базарбаев, М. И., Сайфуллаева, Д. И., & Сафаров, У. К. (2018). Подход к обучению математике, информатике, информационным технологиям и их интеграции в медицинских вузах.
19. Фазилова, Л., & Абдуганиева, Ш. (2018). Компьютерные технологии в высшем медицинском образовании. *Стоматология*, 1(4 (73)), 59-61.
20. Abduganieva, S., Fazilova, L., Nurmatova, F., & Khodjaeva, D. (2023). Computer-human interaction: Web technologies in education. *PROBLEMS IN THE TEXTILE AND LIGHT INDUSTRY IN THE CONTEXT OF INTEGRATION OF SCIENCE AND INDUSTRY AND WAYS TO SOLVE THEM:(PTLICISIWS-2022)*, 2789(1), 050005.
21. Nurmatova, F. B., Xuan, R., & Fazilova, L. A. (2024). The advantages of implementing digital technology in education. *Innovations in Science and Technologies*, 1(3), 192-195.

22. Фазилова, Л. А. Масофавий таълимни ташкил этишда онлайн маърузалардан фойдаланишнинг назарий-методологик аҳдмияти. Замонавий тиббий олий таълим: муаммолар, хорижий тажриба, истикболлар" мавзусидаги VII уқув-услубий анжуман туплами.-УДК, 004-37.

23. Fazilova, L. A. Studying Medicine In Online Education With The Mobile Application" A To Z Anatomy". The American journal of Engineering and Technology, 94-99.

24. Каюмова, М. (2025). ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В КЛИНИЧЕСКОЙ ПРАКТИКЕ: ПЕРСПЕКТИВЫ И ВЫЗОВЫ. Academic research in educational sciences, (Conference 1), 165-168.

25. Fayziyeva, N. (2021, December). Modeling and Forecasting of Tax Revenue to the Budget for Profit in the Republic of Uzbekistan. In Proceedings of the 5th International Conference on Future Networks and Distributed Systems (pp. 420-424).

26. Baxtiyorovna, E. D., Alisherovna, F. N., & Hozhievich, B. E. (2025). HISTORY OF THE DISCOVERY OF RADIOACTIVITY AND X-RAYS, NUCLEAR EXPLOSIONS EXPLANATION OF THE PHENOMENON RESEARCH USING INTERACTIVE METHODS. Web of Discoveries: Journal of Analysis and Inventions, 3(5), 61-65.

27. Fayziyeva, N. (2025). THE EFFECT OF MAGNESIUM ON PREGNANT WOMEN. Web of Medicine: Journal of Medicine, Practice and Nursing, 3(5), 60-63.

28. Fayziyeva, N. (2025). THE INTENSITY OF DIABETES CASES AMONG THE POPULATION OF BUKHARA REGION OVER THE PAST 5 YEARS. International journal of medical sciences, 1(1), 158-161.